

OILADA TARBIYA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Hakimova Gulchehra

Matematika va Informatika yo'nalishi talabasi

Cho'lliyeva Mehriniso

Ziyodullayeva Musharraf

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada tarbiya jarayoni va maktab bilan hamkorlikning ahamiyati, ularni uyg'unlashtirish orqali bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda zamonaviy yondashuvlar — raqamli texnologiyalardan foydalanish, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, individual va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida hamkorlikni tashkil etish yo'llari tahlil etiladi. Maktab va oila o'rtasidagi tizimli aloqaning tarbiyadagi ijobiy ta'siri asoslab beriladi. Maqola pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, maktab, hamkorlik, zamonaviy yondashuv, pedagogik muloqot, raqamli texnologiyalar, ota-onsa va maktab aloqador.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение семейного воспитания и сотрудничества между семьёй и школой в условиях современной образовательной системы. Особое внимание уделяется современным подходам к организации эффективного взаимодействия между родителями и педагогами, включая использование цифровых технологий, индивидуально-психологический подход, а также повышение педагогической культуры родителей. Анализируются основные проблемы в этом процессе и предлагаются практические рекомендации по их преодолению. Материал статьи может быть полезен для педагогов, психологов и родителей, заинтересованных в гармоничном развитии личности ребёнка.

Ключевые слова: семья, воспитание, школа, сотрудничество, современные подходы, педагогическое взаимодействие, цифровые технологии, связь между родителями и школой.

Annotation: This article explores the importance of family upbringing and the collaboration between families and schools within the context of modern education. It emphasizes contemporary approaches to building effective partnerships between parents and educators, including the use of digital technologies, individualized psychological support, and enhancing parents' pedagogical awareness. The paper also analyzes common challenges in this cooperation and offers practical recommendations for overcoming them. The content is intended to serve as a useful theoretical and practical resource for teachers, psychologists, and parents committed to the holistic development of children.

Keywords: family, upbringing, school, cooperation, modern approaches, pedagogical interaction, digital technologies, parent-school communication.

Kirish:

Oilada tarbiya — har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichdir. Bola hayotga bo‘lgan ilk qarashlarini aynan oiladan oladi. Maktab esa bolaga bilim berish bilan birga, uni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Shu bois, zamonaviy ta’lim jarayonida oila va mакtab o‘rtasidagi hamkorlik bolani har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib voyaga yetkazishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi davrda bu hamkorlikni kuchaytirishga zamonaviy texnologiyalar, yangicha yondashuvlar va interaktiv usullar xizmat qilmoqda.

Asosiy qism:

Oila va maktabning tarbiyatagi roli: Oila – bolaning shaxsiyati, axloqiy qarashlari, madaniyati va fe’l-atvori shakllanishining boshlang‘ich manbai. Maktab – bola uchun tashqi muhitdagi muhim ijtimoiy institut bo‘lib, unda bilim olish, do‘stlik, intizom va mas’uliyat tuyg‘usi shakllanadi. Har ikki muhitda bola o‘zini qadrlangan, tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilishi kerak. Zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy ta’lim jarayonida oila va mакtab o‘rtasidagi hamkorlikni samarali tashkil etish uchun quyidagi yondashuvlar muhim:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:

Elektron kundaliklar, Telegram guruhlari, vebinar va videomuloqotlar orqali doimiy aloqa. Masofaviy ota-onalar yig‘inlari va onlayn maslahatlar.

Individual yondashuv:

Har bir o‘quvchining oilaviy holati, qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olish.

Psixologlar va sinf rahbarlari bilan muntazam maslahatlashuvlar.

Ota-onalar bilan pedagogik ishlari:

Treninglar, seminarlar, ota-onalar uchun “ochiq dars”lar.

Ota-onalar bilan interaktiv mashg‘ulotlar orqali tarbiyaviy hamkorlikni kuchaytirish. Hamkorlikda muammolarni hal qilish:

O‘quvchilarning o‘qishdagi yoki xulqidagi muammolarni ota-onalar va maktab vakillari birgalikda tahlil qilib, yechim topadi.

Hamkorlikdagi dolzarb muammolar

Ota-onalarning vaqt yetishmovchiligi va maktab bilan yetarlicha aloqa qilmasligi.

Ba’zi hollarda oilaviy tarbiya usullarining maktab mezonlariga zid bo‘lishi.

Raqamlı savodxonlikning pastligi — texnologik aloqa vositalaridan foydalana olmaslik. Maktabda ota-onalar ishtirokini chekllovchi byurokratik to‘siqlar.

Xulosa: Zamonaviy ta’limda oilaning maktab bilan tizimli, samarali va faol hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Bola hayotida bu ikki muhitning uyg‘unligi orqali sog‘lom fikrli, bilimli, ma’naviy yetuk avlod shakllanadi.